

## VII. MOLIYA, KREDIT VA INVESTITSIYA

**UDK: 336.71**

### HUDUDLARINI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'NALISHLARI

Farrux Abrayev – O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi magistranti

### НАПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРОГРАММ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА

Фаррух Абраев – магистрант Финансово-банковской  
Академии Республики Узбекистан

### SOCIAL-ECONOMIC DEVELOPMENT PROGRAMS OF THEIR FUNDING DIRECTIONS TERRITORIES

Farrukh Abraev - graduate student of the Academy of  
Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan

**Annotasiya.** Ushbu maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga yo'naltiriladigan mablag'lar samaradorligini oshirish maqsadida ushbu xarajatlarga o'zgartirish kiritish vakolatini mahalliy kengashlar ixtiyoriga o'tkazish asosida nazoratni ko'chaytirish, mahalliy budjetlarning qo'shimcha daromad manbalaridan foydalanishda ustuvorlikni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga qaratish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** hudud, ijtimoiy-iqtisodiy dastur, moliya, moliyaviy mablag', budjet, mahaliy budjet, qo'shimcha doromad, moliyaviy loyiha, moliyaviy hisobot.

**Аннотация:** В целях повышения эффективности использования средств, направляемых на программы социально-экономического развития регионов, рассматриваются вопросы усиления контроля на основе передачи полномочий по внесению изменений в эти расходы на усмотрение местных советов, сосредоточении приоритета на финансировании программ социально-экономического развития регионов при использовании дополнительных источников доходов местных бюджетов.

**Ключевые слова:** Территория, социально-экономическая программа, финансы, финансовые ресурсы, бюджет, местный бюджет, дополнительные доходы, финансовый проект, финансовый отчет.

**Abstract:** In order to increase the effectiveness of the funds directed to the socio-economic development programs of the regions, the issues of increasing the control based on the transfer of the authority to make changes to these expenses to the discretion of the local councils, focusing the priority on the financing of the socio-economic development programs of the regions in the use of additional sources of income of the local budgets are covered in this article.

**Key words:** Territory, socio-economic program, finance, financial resources, budget, local budget, additional revenue, financial project, financial report.

#### 1. KIRISH

Dunyoda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishni nazoratni tashkil etish va respublika va

mahalliy budjetlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Osiyo taraqqiyot banki ma'lumotlariga ko'ra, "Markaziy Osiyo davlatlari hududlar infratuzilmasini yaxshilash maqsadlariga har yili 33 mlrd.dollar yoki YAIMning 6,8 foizini sarflashi, mintaqaning 2030 yilgacha infratuzilmaga bo'lgan talablarni qondirishga xizmat qiladi" [1].

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga sarflangan mablag‘lar shaffofligini ta‘minlash, hududlarda kichik biznes subyektlari uchun infratuzilmani yaratib berish orqali hududda sanoat ishlab chiqarishni oshirish kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

“... hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy budjetlarning mablag‘lari yetarli emas”, - deb ta‘kidlangan [2]. Mazkur da‘vatni hal etish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va uzluksiz moliyalashtirish, sarflangan mablag‘lar natijadorligi va samaradorligiga erishish dolzarb muammolardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi (2019 y.) Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi PF-5075-sonli “Mahalliy budjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022 yil 10 dekabrda PQ-43-son “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019 yil 7 iyundagi PQ-3042-son “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalarni muayyan darajada amalga oshirishga ushbu mavzuga xizmat qiladi.

## 2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budjetlar iqtisodiy mohiyatini yoritishni mahalliy davlat boshqaruvi organlari, ular zimmasiga yuklatiladigan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar, mazkur vazifalarning mahalliy budjet xarajatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi, mahalliy davlat hokimiyati

faoliyatining asosiy manbai hisoblangan mahalliy budjetlar tushunchasi, ular xarajatlari belgilanishi yuzasidan ilmiy qarashlar mavjud.

Mahalliy iqtisodchi olim A.O‘lmasov fikricha, “Iqtisodiyot bu kishilarning moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatdir” [3].

Kishilar o‘z moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishlari uchun davlat tegishli shart sharoit yaratishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda, davlat fuqarolarni muayyan ijtimoiy ne‘matlar bilan ta‘minlashi talab etadi. Mazkur ta‘minotni amalga oshirish maqsadida davlat yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotni taqsimlash orqali o‘z ixtiyorida markazlashtirilgan pul mablag‘lari – budjetni shakllantiradi va uni ishlatadi. Davlat budjeti davlatning tuzilishiga ko‘ra bo‘g‘inlarga ajratiladi.

Fransuz faylasufi Prudon fikriga ko‘ra, davlat xarajatlari zaruriyatidan kelib chiqib cheklanishi, buning uchun mezon sifatida u yoki bu davlat xizmatiga bo‘lgan talab va mamlakatdagi fuqarolarning zimmasiga tushadigan soliq yuki inobatga olinishi kerak [4]. Uning fikricha, davlat xizmatlaridan olinadigan foyda har qanday holatda ham majburiy tartibda emas balki bevosita va bilvosita tartibda quyidagi moddalar ko‘rinishida davlat kreditlari: maqsadli, maqsadsiz, real; axborot berish yo‘llari; tog‘konlari; dok<sup>1</sup>lar, bandargohlar va boshqa; suvlar va o‘rmonlar (ushbu xarajatlarga zaxni qochirish, sug‘orish bilan bog‘liq xarajatlar va b. kiritiladi); pochta va telegraf va qurol-aslaha va o‘q-dori ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar keltirilishi maqsadga muvofiqdir deb hisoblaydilar.

Yana bir fransuz iqtisodchi olimi Sey davlat xarajatlarini real va soxta xarajatlarga ajratgan. Uning fikricha, moliyaning holati ikkinchisiga nisbatan teskari munosabatda bo‘ladi. Biroq shubhasiz ko‘rsatilgan mezon davlat xarajatlari xususiyatlari va darajasini aniqlash uchun yetarli emas [5]. Lekin, keltirilib o‘tilgan ko‘rsatkichlar davlat ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning asosiy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda

<sup>1</sup> Kemalar tuzatiladigan korxonalar

aniqlanadigan davlat xarajatlarining miqdori va ahamiyatini aniqlash uchun yetarli emas, albatta.

Budjet mablag‘lari borasida fikr yuritar ekanmiz, iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Buyuk alloma Abdulla Avloniy “Iqtisod deb pul va mol qadrini bilmoqqa aytilur” deya ta’kidlagan [6].

Budjet xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi haqida fikr yurita turib o‘zbek iqtisodchi olimlari T.S.Malikov va N.X.Xaydarovlar shunday deydi “Budjet xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarga, milliy xo‘jalikning ehtiyojlariga bog‘liq hamda budjet mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste‘molning ba’zi bir omillariga davlatning ta’sirchanligini ta’minlash kabilar bilan belgilanadi” [7] deb hisoblashadilar.

### 3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga yo‘naltiriladigan mablag‘lar samaradorligini oshirish maqsadida ushbu xarajatlarga o‘zgartirish kiritish vakolatini mahalliy kengashlar ixtiyoriga o‘tkazish asosida nazoratni ko‘chaytirish masalalari qiyosiy fikrlash, induksiya va deduksiya hamda abstraksiya usullaridan keng foydalanilgan.

### 4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining asosiy moliyaviy bazasini mahalliy budjetlar tashkil qiladi. Mahalliy budjetlar milliy daromadni ko‘p pog‘onali qayta taqsimlash mahsulini aholiga yetkazishning asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi. Mahalliy budjetlardan ma’lum darajada mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlari, kommunal xo‘jalik, hududni obodonlashtirish, keng aholi qatlamlarining normal hayotiy faoliyatini ta’minlovchi xizmatlarni amalga oshiruvchi boshqa bir qator soha va tarmoqlar xarajatlari moliyalashtiriladi.

Mahalliy budjetlar davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasi bo‘lib, O‘zbekistonda ikki pog‘onali budjet

tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Mahalliy budjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo‘ladi. Ular haqida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- mahalliy davlat boshqaruv organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etuvchi pul fondlarini shakllantirish;

- pul fondlarini hududiy iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar o‘rtasida qayta taqsimlash va ishlatish;

- mahalliy davlat boshqaruviga bo‘ysinuvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini ustidan nazorat olib borish.

Mahalliy budjetlardan xo‘jalik jarayonlarini tartibga solish, iqtisodiyotga ta’sir o‘tkazish, ta’lim va madaniyatni rivojlantirish, ijtimoiy masalalarni hal etish, aholi bandligini ta’minlash va boshqa shu kabi muammolarni hal etishda foydalaniladi.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida iqtisodchi olimlar tomonidan ilgari surilgan g‘oya va fikrlar asosida mahalliy budjetlar xarajatlarini belgilashning nazariy asoslari bilan tanishamiz.

Davlat xarajatlarini belgilashning ikkinchi sharti sifatida shuni qayd etish mumkinki, xarajatlar davlat va jamiyat uchun foydali va davlat tomonidan ko‘rsatiladigan barcha zaruriy xizmatlar omma uchun birdek barobar bo‘lishini taqozo etadi. Har bir davlat adolatli va oqilona ichki siyosatni yuritishda faqat aholining boy qatlamigagina qulay bo‘ladigan ta’lim va sud tizimini shakllantirmasdan balki barcha uchun qulay bo‘ladigan tartibni belgilashi maqsadga muvofiq. Buning uchun, umumahamiyatga ega, muassasa ta’minoti bo‘yicha alohida xarajat moddalari miqdorini aniqlash chog‘ida maksimal darajada iqtisod qilinishi o‘rinli hisoblanmaydi.

Vaholanki, hisob-kitob shuni nazarda tutadiki, ushbu turdagi muassasalarni ta’minlash mazkur xizmatdan foydalanuvchilar badallari hisobiga qoplanadi. Barcha fuqarolar tomonidan beminnat foydalaniladigan davlat xizmatlarining turli-tumanligi va ko‘p sonliligi davlatning o‘z xo‘jaligi sohasidagi vazifalarini to‘liq

bajarish imkonini beradi. Davlat xo'jaligi sohasi doirasida ko'rsatiladigan xizmatlar miqdoridan kelib chiqib emas, balki uning ahamiyatiga qarab xarajat miqdori aniqlanadi, bu shuni bildiradiki, davlat xarajatlari yoyilmasini tuzish asosi odatda xarajatlar hisobiga qarab daromadlar hisobi tuziladi.

Va nihoyat uchinchi sharti, xarajatlar moddalarini aniqlash ko'rsatiladigan xizmatlar miqdori va sifatiga to'g'ri proporsional tarzda taqqoslanadi, hamda bu xizmatlarni taqqoslama baholash davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari, ular o'rtasidagi to'g'ri o'zaro munosabatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Davlat xarajatlari umumdavlat yoki mahalliy ehtiyojlarni qondirishiga bog'liq holda markaziy va mahalliy xarajatlarga ajratiladi. Mahalliy xarajatlar davlat va jamiyat, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish organlari (shaharlar, yerlar, obshinlar) dan kelib chiqib tuziladigan maxsus xarajatlar ro'yxati so'nggi kategoriyadagi xarajatlar uchun quyidagi qulayliklarni keltirib chiqaradi:

1) fuqarolar zimmasidagi og'irlik va undan olinadigan foyda o'rtasida to'g'ri munosabatni o'rnatishning qulayligi;

2) og'irlikning o'sishiga fuqarolarning tayyorligi, unga mos ravishda sezilarli natijaning mavjudligi;

3) xarajatlarni ehtiyojlarning puxta baholanishi asosida aniqlanishi;

4) ehtiyojlar adolatli tarzda qondirilishi.

Bu kabi mahalliy avtonom organlar xarajatlari odatda quyidagi uchta kategoriya bo'yicha jamlanadi:

1) markaziy davlat hokimiyati tomonidan o'z maqsad va miqdorlari bo'yicha aniqlanadigan majburiy xarajatlar. Shuningdek, o'zini-o'zi boshqarish organlari faqat ushbu xarajatlarni qoplash uchun qo'shimcha mablag' izlab topishlari talab etiladi;

2) markaziy davlat hokimiyati tomonidan miqdor jihatidan emas, xarajatlar xususiyatidan kelib chiqib aniqlanadigan – majburiy xarajatlar. Mazkur xarajatlar

miqdori o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan aniqlanadi;

3) markaziy davlat hokimiyati aralashuviziz aniqlanadigan ixtiyoriy xarajatlar.

Mahalliy davlat hokimiyati bu kabi xarajatlarni tasdiqlash huquqini o'z ixtiyorida qoldiradi va mahalliy soliqlarning yuqori miqdori xarajatlarni qoplay olish imkoniyatidan kelib chiqib aniqlanadi. Mahalliy davlat boshqaruv organlari xarajatlari majburiy va ixtiyoriy xarajatlarga ajratiladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari birinchi darajali xarajatlarni qoplash uchun dastavval maksimal darajada o'z daromadlarini shakllantirishi obektiv zarurat hisoblanadi. Jamiyat xarajatlari kategoriyasi davlat ahamiyatidagi ehtiyojlar uchun xarajatlarga mos kelishi talab etiladi.

Yuqoridagidan kelib chiqib, davlat xarajatlarini nazariy va amaliy jihatdan mos keladigan quyidagi 4 ta toifaga ajratish mumkin:

1) Yuqori boshqaruvni saqlash;

2) Keng ma'noda boshqaruvning shaxsiy tarkibini saqlash;

3) Moddiy xarajatlar;

4) Kreditlar bo'yicha xarajatlar.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning mahalliy budjetlar xarajatlari tarkibi bo'yicha fikrlarini keltiramiz.

Ilmiy tadqiqotlarimiz jarayonida olib borilgan izlanishlarga tayangan holda, bizningcha, mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatining markaziy elementi sifatida mahalliy darajada hal qilinadigan masalalar, xususan mahalliy budjet xarajatlari vakolatlarini belgilash namoyon bo'ladi.

Har bir mahalliy hududda aholi turmush darajasining o'sishi, iqtisodiyot tarmoqlarining amal qilishi uchun boshqaruv vakolatlarini eng maqbul tarzda chegaralash, ommaviy-huquqiy tuzilmalar o'rtasida vakolatlar taqsimoti birinchi darajali muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda ommaviy-huquqiy tuzilmalar qonun bilan o'rnatiladigan masalalar yig'indisi, jumladan tegishli davlat hokimiyati organi tomonidan qarorlar qabul qilish huquqiga ega bo'lishini ifodalasa, vakolatlar taqsimoti ma'lum bir masalani hal etish yuzasidan huquqiy-

meyoriy hujjatlarni chop etish huquqini beradi.

Masalan, kommunal xizmat vakolatlarini chegaralash davlat va mahalliy hokimiyat boshqaruv organlari o'rtasida daromad manbalarining taqsimlanish proporsiyasi asosida aniqlanishini shart qilib qo'yadi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, umumijtimoiy masalalarni hal qilish bo'yicha ijro hokimiyati javobgarligini aniqlashning qat'iy belgilangan qoidalari hanuzgacha nazariy jihatdan asoslanmagan va amaliyotda mavjud emas, shunga qaramasdan, xarajat vakolatlarini chegaralashning qator tamoyillari mavjudligini rad etmaslik lozim.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyatining hududda joylashgan aholining holatini bilishi hamda mahalliy aholi turmush farovonligini o'stirishning zaruriyatidan kelib chiqqan holda mahalliy moliyaning barqaror soliq bazasini shakllantirish va shunga mos ravishda ko'rsatiladigan xizmatlar majmuini taqdim etish yuzasidan mustaqil qaror qabul qilish imkoniga ega bo'lishini taqozo etadi.

Mahalliy davlat boshqaruv organlari huquq va vakolatlariga qaramasdan mustaqil faoliyat yuritishlari zarur. Bu bo'linmas javobgarlik prinsipini hisobga olishni ko'zda tutadi. Javobgarlikning bo'linishi huquqlarning kamayishini taqozo etadi, pirovardida turli darajadagi hokimiyatlar doirasida noto'g'ri rag'batning yaratilishi natijasida xato qarorlar yoki ularning bajarilmasligi holatlari bo'yicha bir-birini aybdor qilib ko'rsatishning avj olishiga sabab bo'ladi.

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida qayd etish kerakki, barcha ijtimoiy xarakterdagi masalalar imkon darajasida bo'linmas javobgarlik tamoyiliga ko'ra chegaralanishi va uning oqibatida vakolatlar, xususan xarajat vakolatlari hamda ularni amalga oshirishda zarur bo'ladigan daromad manbalarining chegaralashni nazarda tutadigan hududiy muvofiqlik tamoyili amalga oshiriladi.

Vakolatlarini chegaralashda xizmatlar iste'molchilari yoki ijtimoiy ne'matlardan foydalanuvchilarining qamrab olinishi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ommaboplik tor doirada mahalliy moliyaning mustaqil tarzda mavjud bo'lishini taqozo etsa-da, qonunchilik bilan mahalliy hududlarda ijtimoiy faravonlikning minimal standartlari biriktiriladi.

Shu bilan birga, mahalliy moliyaga aniq vazifalarni biriktirish borasida so'z borganda birinchi navbatda ijtimoiy ne'matlarning ommabopligi mavjudligini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, mahalliy ne'matlardan nafaqat mahalliy hudud doirasida yashovchi aholi qatlami shu bilan birga ne'matlarning turi va aholini taklif qila olish hajmidan kelib chiqqan holda tashqi foydalanuvchilar miqdori ham o'zgarib turishi mumkin.

Mahalliy organlar huquqiga kiruvchi ne'matlardan tashqi foydalanuvchilar mavjud bo'lganda, ularni taqdim etishning bir qator usullarini keltirish mumkin:

- xizmatni taqdim etish bo'yicha mablag'larni to'liq qoplash doirasida foydalanuvchilardan xizmat uchun to'lovlarni undirish;
- xarajatlarni qisman qoplovchi mahalliy to'lovlar va yig'imlarni undirish;
- qo'shni mahalliy organlar bilan ixtiyoriy hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- yuqori turuvchi budjetlar bilan birgalikda moliyalashtirishni tashkil etish, jumladan "maqsadli transfertlar" ko'rinishida;
- mahalliy hokimiyatlarga nisbatan yuqori darajada funksiyalar (vakolatlar)ni berish.

Mahalliy davlat boshqaruv organlari javobgarligining chegaralarini, alohida xizmatlar bo'yicha mahalliy meyoriy hujjatlarning asosiy qonunlar bilan muvofiqligini, o'zgarmaslikni va biriktirishning uzoq muddatli xarakterini ko'zda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://adbi.us12.listmanage.com/track/click?u=7300634262c7cc5dc58dcd5e3&id=5e64c53c34&e=bbb935aa1>
2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, 2017. <https://president.uz/uz/lists/view/187>
3. O'lmasov A. Iqtisodiyot (qonun-qoidalar va tartib tamoyillar): Ommaviy qo'llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. B.9/224.
4. (fr. Pierre-Joseph Proudhon) (15.01.1809-19.01.1865). Fransuz siyosatchisi, publisisti, iqtisodchisi, faylasuf -myutyuelisti va sosiologi bo'lgan.
5. Jan-Batist Sey (5.01.1767-15.11.1832) – fransiz iqtisodchi olimi, siyosiy iqtisod klassik maktabi vakili.
6. Abdulla Avloniy Turkiy Guliston yoxud ahloq”. – T.: 1992. – B.33
7. Malikov T.S., Haydarov N.H. Budget daromadlari va xarajatlari (o'quv qo'llanma) / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent. 2007. – B.160